QASHQADARYO VILOYATI SHAHRISABZ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 4-oktabr 302-4-67-Q/24 Shahrisabz tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to’grisida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilda ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarniishga joylashtirish maqsadida ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish bo‘yicha tuman ishchi komissiyasi tarkibi **1-ilovaga** hamda ish o‘rinlari band qilingan korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish, xodimlarining ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni yigirma nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 3399 kishini tashkil etadigan 3 foiz miqdorida, ya’ni 86 kishi miqdorida ish o‘rinlari,

jumladan:

- nogironlar uchun – 3 kishi;
- o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar uchun – 44 kishi;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilar uchun – 38 kishi;
- oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabirlanganlar uchun – 1 kishi miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlarini xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarilishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

Bunda:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar uchun — bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilar uchun — ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun — ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun — mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun — ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa — maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari bo‘lishi kerak.

4. Tumandagi korxona, muassasa va tashkilotlar 2025-yil boshlangungacha 10 kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmda ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini va tayyor bo‘lishini ta’minlasinlar hamda bu to‘g‘rida tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yil boshlangungacha **3-ilovaga muvofiq** shaklda axborot bersinlar.

5. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini band qilib qo‘yish korxona, muassasa va tashkilotlar (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida amalga oshirib, bu

to‘g‘risida tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yilning birinchi choragi tugagandan keyin 10 kundan kechikmay yozma ravishda axborot berish topshirilsin.

6. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq jarima solinadi.

7. “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan korxona, tashkilot va muassasalar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko‘maklashish markazi jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

8. Tuman hokimining 2025-yil uchun qabul qilinadigan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi qarori loyihasiga ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan va ish izlashda qiyinchiliklarga duch kelayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilgan (kvota) ish o‘rinlari va kasblarni attestatsiyadan o‘tkazish majburiyati korxona rahbari (ish beruvchi) zimmasiga yuklatilsin.

9. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Z.Xalilov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari e’tiboriga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

10. Shahrisabz tumani hokimining 2023-yil 09-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi 168-4-67-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Qurbanov zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz tumani hokimi

S.A.Xasanov

Shahrisabz tuman hokimining
2024-yil 4-oktabrdagi
302-4-67-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish bo‘yicha tuman
ISHCHI KOMISSIYASI TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1.	B.Qurbanov	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ***komissiya raisi***
A’zolari:		
2.	Z.Xalilov	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, ***komissiyaning ishchi organi***
3.	A.Djurayev	Tuman IIB boshlig‘i
4.	Sh.Qurbonova	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
5.	A.Bozorov	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
6.	M.Xolbo‘tayev	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
7.	A.Yuldashev	Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i
8.	T.Nabiyev	Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi boshlig‘i
9.	Sh.Botirov	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
10.	A.Jo‘rayev	O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
11.	I.Xurramov	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha bosh mutaxassisi, ***komissiyaning kotibi***

Shahrisabz tuman hokimining
2024-yil 4-oktabrdagi
302-4-67-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish bo‘yicha korxona, tashkilot va muassasalar

RO‘YXATI

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlari belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlar nomi)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilda zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni		shu jumladan:								
			Nogironligi bo‘lgan shaxslarga	Boshqa toifadagilarga	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Boshqa	14 yoshgacha va nogiron bolali bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Umumiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soniga yaqinlashib olganlar	Jazoni ijro etish muassasalarida yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni, o‘tash muassasalaridan bo‘shatilganlar	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar uchun
1	Tuman tibbiyot birlashmasi	800	2	8	2		3	4					1
2	43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	112		3			2	1					
3	47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	102		3			2	1					
4	45-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	102		3			2	1					
5	39-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	100		3			2	1					
6	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	100		3			1	2					

7	32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	90		2			1	1						
8	10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	89		3			2	1						
9	57-sonli umumiy o`rta ta`lim muassasasi	88		3			2	1						
10	13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	88		3			2	1						
11	27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	86		3			2	1						
12	38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	86		2			1	1						
13	30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	83		2			1	1						
14	17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	83		2			1	1						
15	15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	82		2			1	1						
16	26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	78		2			1	1						
17	42-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	74		2			1	1						
18	24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	72		2			1	1						
19	16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	72		2			1	1						
20	3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	70		2			1	1						
21	70-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	70		2			1	1						
22	18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	69		2			1	1						
23	36-sonli ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi	68		2			1	1						
24	Shahrisabz tuman suv yetkazib berish xizmati	68		2			1	1						
25	74-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67		2			1	1						

26	49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67		2			1	1						
27	50-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67		2			1	1						
28	20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	64		2			1	1						
29	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	64		2			1	1						
30	68-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	63		2			1	1						
31	46-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	62		2			1	1						
32	14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61		2			1	1						
33	33-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61		2			1	1						
34	20-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	61		2			1	1						
35	Shahrisabz tuman madaniyat bo‘limi	30	1		1									
35	**Jami:**	**3399**	**3**	**83**	**3**	**0**	**44**	**38**	**0**	**0**	**0**	**0**	**1**	

Shahrisabz tuman hokimining
2024-yil 4-oktabrdagi
302-4-67-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Tashkilot nomi

_____

Yuridik manzili:

_____

Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etiladi.

Har chorakda hisobot davridan keying oyning 10-sanasiga qadar

2025-yilning ___ - choragida Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

A X B O R O T

1. _____ tuman (shahar) hokimining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari soni.

2. Zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar toifalari	**Hisobot davri oxiridagi holati bo‘yicha ishlamoqda (kishi)**	**ulardan ishga joylashtirilganlar**	
		hisobot chorakda) oyida	**yil boshidan**
Jami:			
shu jumladan:			
o‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar			
ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar			
muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar			
nogironlar			
tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar			
jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy harakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar			
odam savdosidan jabrlanganlar uchun			
ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarning boshqa toifalari			

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun bo‘sh ish o‘rinlari soni, hisobot davri oxiriga

____ ish o‘rinlari.

Tashkilot rahbari _____
(imzo)

Kadrlar bo‘limi boshlig‘i (inspektor) _____
(imzo)

M.O‘.
20___-yil _____- _____